



HUMAN
SCIENCES.UZ

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2025

1-JILD | 1-SON

HUMANSIENCES.UZ

№ 1 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdukarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: x.urdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
O'zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Muxammadiyev Akmal

TOSH XOMASHYOSI MANBALARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY HAMDA
MADANIY HAYOTGA TA'SIRI6-16

Turdimuratov Yangiboy

ETNOTURIZM – IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI 17-24

Xolmatov Shukurillo

AMERIKALIK TADQIQOTCHILAR TOMONIDAN MARKAZIY OSIYONI ARABLAR TOMONIDAN
ISTILO QILINISHINI O'RGANILISHI. TADQIQOTLAR TAHLILI 25-30

Qodirjonov Omadjon

IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNING
ANDIJON VILOYATIGA TA'SIRI 31-36

Sodiqov Abduhalil

TURKIY XALQLAR UMUMIY MAFKURASINI SHAKLLANTIRISHDA ZIYOLILARNING ROLI:
YEVROOSIYO MINTAQASIDA TARIXIY VA ZAMONAVIY KONTEKST 37-48

07.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Turg'unov Muxriddin, Maxammadov Diyorbek

TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIVAVIY TAHLIL QILISH 49-52

Гаибназарова Зумрат, Сайдалиева Мубина

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ
УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ПРИМЕНЕНИЯ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ, БАНКИНГЕ И
СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ 53-58

Khamraev Abdulkhofiz, Latipov Ashur

HR ANALYTICS IN INDUSTRY 4.0: FORECASTING AND MANAGING EMPLOYEE
PERFORMANCE THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE 59-62

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

Salimova Gulnoza

THE ROLE OF PRAGMALINGUISTICS IN ENHANCING COMMUNICATION EFFECTIVENESS
WITHIN THE STEAM CONCEPT 63-67

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI

Yavkochdiyeva Dilafruz

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" FANIDA "KREATOR" INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYASINI
QO'LLASH 68-75

Farsaxonova Mastura

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'ZBEK XALQ ERTAKLARI, RIVOYATLARI VA BOLALAR
QO'SHIQLARI ORQALI 4K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 79-84

Raxmatov Otabek

SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM
TEXNOLOGIYALARINING AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI..... 85-91

Xamroyev Samijon

KASBGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA SPORT TO'GARAKLARI
ORQALI TALABALARNI JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH 92-99

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI

Abduraxmonova Zuhra

XORIJ PSIXOLOGIYASIDA SANOGEN TAFAKKUR XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA
MEZONLARINING O'RGANILISHI100-106

AMERIKALIK TADQIQOTCHILAR TOMONIDAN MARKAZIY OSIYONI ARABLAR TOMONIDAN ISTILO QILINISHINI O'RGANILISHI. TADQIQOTLAR TAHLILI.

Xolmatov Shukurillo Ziyoviddin o'g'li

Farg'ona Davlat Universiteti

Tarix fakulteti tayanch doktoranti

Tel: +99895-676-07-08

Email: alpinisth@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-3436-2405>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Arab xalifaligi tomonidan Markaziy Osiyo istilosining o'rganilishi haqida va unga bag'ishlangan Amerikalik tadqiqotchilar tomonidan ingliz tilida yaratilgan ilmiy adabiyotlar haqidagi ayrim fikr mulohazalar va tahlillar ilgari surilgan. Jumladan, Fred M. Donner, Patrisiya Kroun, Michael G. Morony, Elton L. Daniel, I. Kristofer Bekvit kabi tadqiqotchilar asarlarining mazmuni hamda ulardagi e'tiborga molik fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, AQSh, Amerikalik tadqiqotchilar, Fred M. Donner, Harvard va Yale universitetlari, "The Early Islamic Conquests" (Ilk Islomiy fathlar), Movarounnahr, Xuroson, Michael G. Morony, Patrisiya Kroun, Elton L. Daniel, I. Kristofer Bekvit, Umaviylar, Abbosiylar.

RESEARCH ON THE ARAB CONQUEST OF CENTRAL ASIA BY AMERICAN RESEARCHERS: ANALYSIS OF THE STUDIES

Xolmatov Shukurillo Ziyoviddin o'g'li

Fergana State University

PhD candidate at the Faculty of History

Annotation. This article presents some comments and analyses of the scientific literature in English by American researchers on the study of the Arab Caliphate's conquest of Central Asia. In particular, the content of the works of researchers such as Fred M. Donner, Patricia Crown, Michael G. Morony, Elton L. Daniel, I. Christopher Beckwith and notable information in them.

Keywords: Central Asia, USA, American researchers, Fred M. Donner, Harvard and Yale Universities, "The Early Islamic Conquests", Transoxiana, Khorasan, Michael G. Morony, Patricia Crown, Elton L. Daniel, I. Christopher Beckwith, Umayyads, Abbasids.

KIRISH. Markaziy Osiyo qadim va o'rta asrlarda sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lib, Xitoyni G'arb bilan bog'lagan muhim savdo va madaniy aloqalar markazi bo'lgan. Qadimdan Markaziy Osiyoda turli xalqlar yashagan. Ularning turmush tarzi birinchi navbatda hududning iqlimi va geografiyasi bilan belgilanadi. Mintaqaning quruqligi qishloq xo'jaligini qiyinlashtiradi va dengizdan masofa uzoqligi uni ko'plab savdo-sotiqdan uzib qo'yadi. Shunga qaramay, mintaqada bir nechta yirik shaharlar rivojlandi. Ko'chmanchi xalqlar bu huqudda ming yillar davomida hukmronlik qilgan. Hozirgi O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Xitoyning Sintszyan viloyati hududlarini o'z ichiga olgan ushbu mintaqada, tarix davomida Doro, Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy), Temur va ularning vorislari tomonidan zabt etilgan.

Markaziy Osiyo va uning atrofidagi dasht ko'chmanchilari va o'troq odamlar o'rtasidagi munosabatlar ziddiyatlar bilan ajralib turardi. Ko'chmanchi turmush tarzi urushga juda mos edi va dasht chavandozlari otda kamonchilarining halokatli texnikasi va qobiliyati tufayli dunyodagi eng harbiy jihatdan kuchli odamlarga aylanishdi.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Markaziy Osiyo tarixida Arab xalifaligi istilosi davri chuqur iz qoldirgan bosqichlardan biridir. VIII asrda boshlangan bu istilolar mintaqaning siyosiy, ijtimoiy, madaniy va dini hayotini tubdan o'zgartirdi. Ushbu davr nafaqat mahalliy, balki xalqaro tarixshunoslikda ham muhim tadqiqot mavzusi bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, ingliz tilida olib borilgan tadqiqotlar Markaziy Osiyodagi arab istilosining turli jihatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dissertatsiyada ingliz tilidagi tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida Markaziy Osiyoga Arab xalifaligi tomonidan uyushtirilgan istilolar tarixiga oid yondashuvlar tahlil qilinadi. Ilk o'rta asrlardan boshlab esa Yevropa jamiyatida Sharq mamlakatlariga qiziqish tobora ortib borgan. Markaziy Osiyo tarixi va tarixshunosligi ingliz tilida keng o'rganilmoqda. Bu mintaqaning boy va rang-barang o'tmishi ko'plab ilmiy tadqiqotlarga asos bo'lgan. Markaziy Osiyo qadimdan Sharq va G'arbni, Shimol va Janubni bog'laydigan yo'llarning kesishuvida joylashgan bo'lib, strategik ahamiyatga ega hudud hisoblanib kelgan. Shuning uchun jahonning qudratli va buyuk davlatlari, shu jumladan, Yevropa mamlakatlari bu mintaqaning tarixi va madaniyatiga har doim qiziqish bildirib kelgan va haligacha qiziqishda davom etmoqda. Hozirgi kunga qadar jahon tarixshunosligida va mamlakatimizda Markaziy Osiyo tarixi to'g'risida salmoqli ilmiy asarlar yaratilgan. Ushbu tadqiqotlarda Markaziy Osiyo tarixining ayrim jihatlarini xususida jiddiy mulohazalar uchraydi.

Fred M. Donner — amerikalik mashhur tarixchi va islomshunos bo'lib, u dastlabki islom tarixi, xalifalik davridagi siyosiy va harbiy jarayonlar bo'yicha yetuk mutaxassislardan biri hisoblanadi. Donnerning eng muhim asarlaridan biri bo'lgan "The Early Islamic Conquests" (Ilk Islom istilolari) (1981) asari, o'sha davr haqida Patrisiya Kroun o'zining "Slaves on Horses: The Evolution of the Islamic Polity" (Ot mingan qullar: Islom davlatining evolyutsiyasi) (1980) nomli asarida xalifalik tuzilmalarining shakllanishi, markaziy va mahalliy hokimiyat o'rtasidagi murakkab aloqalari, Amerikalik islomshunos va tarixchi Michael G. Morony (1940 y.) Yaqin Sharq va ilk islomiy davr iqtisodiy-siyosiy tarixiga ixtisoslashgan tadqiqotchidir. U Kaliforniya universitetida tahsil olgan va o'zining chuqur tarixiy tahlillari bilan tanilgan. Uning "Iraq After the Muslim Conquest" (Musulmonlar istilosidan keyin Iroq) (1984) nomli fundamental asari Arab xalifaligining Iroqdagi istilosidan keyingi iqtisodiy, ijtimoiy va ma'muriy o'zgarishlarni chuqur tahlil qiladi, sharqshunos va tarixchi Elton L. Daniel Eron, Xuroson va ilk islom davri tarixi bo'yicha yetuk mutaxassislardan biri hisoblanadi. U bir necha yillar davomida Texas universiteti va boshqa ilmiy muassasalarda faoliyat yuritgan. Uning "The Political and Social History of Khurasan under Abbasid Rule, 747-820" (Abbosiylar hukmronligi davridagi Xurosonning siyosiy va ijtimoiy tarixi 747-820) (1979) nomli asari Xuroson viloyatining abbosiylar hukmronligi davridagi siyosiy va ijtimoiy hayotini tahlil qiluvchi fundamental tadqiqotdir. I. Kristofer Bekvitning asarlari alohida o'rin tutadi. K. Bekvit Markaziy Osiyo va Yevroosiyo tarixi, madaniyati va tillari bo'yicha mutaxassis hisoblanadi. Uning ilmiy ishlari, ayniqsa, ilk o'rta asrlar davridagi Markaziy Osiyo tarixi, ko'chmanchi xalqlar, ipak yo'li madaniyati va ularning Yevroosiyo tarixidagi ahamiyatiga bag'ishlangan. Va boshqa

tadqiqotchilarning asarlarida arablarning Markaziy Osiyoga bosqini haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

XX-asning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyoga arablar bosqini haqidagi tadqiqotlar bilan Amerikalik tadqiqotchilar ham tadqiqot olib borishgan. Hususan, Fred M. Donner — amerikalik mashhur tarixchi va islomshunos bo'lib, u dastlabki islom tarixi, xalifalik davridagi siyosiy va harbiy jarayonlar bo'yicha yetuk mutaxassislardan biri hisoblanadi. U Chikago universiteti professori bo'lib, shuningdek, u Harvard va Yale universitetlarida ham dars bergan. Uning ilmiy yondashuvi zamonaviy tarixiy metodologiyaga asoslangan bo'lib, ayniqsa musulmon jamiyatlarining shakllanishi va ularning siyosiy-madaniy tuzilmalarini manbaviy asosda chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Donnerning eng muhim asarlaridan biri bo'lgan "The Early Islamic Conquests" (Ilk Islom istilolari) (1981) kitobida u musulmonlar tomonidan amalga oshirilgan VII–VIII asrlar istilolarini keng qamrovli tarzda tahlil qiladi. Asarda arab istilolari nafaqat harbiy yurishlar doirasida, balki ularning orqasidagi siyosiy, iqtisodiy va diniy motivlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Muallifga ko'ra, arab istilolari yagona diniy sabablarga emas, balki xalifalikning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish, yangi soliq bazalarini egallash va savdo yo'llarini nazorat qilish zarurati bilan ham bog'liq bo'lgan.

Donner kitobida arab istilolarining turli bosqichlarini bayon etadi: u dastlab Arabiston yarim orolidan tashqariga bo'lgan yurishlar, so'ngra Eron, Mesopotamiya, Shom, Misr, nihoyat Movarounnahr qadar bo'lgan ekspansiyani izchil ravishda yoritadi. Movarounnahr istilosi haqida yozilgan asarning 267–273-betlarida u Qutayba ibn Muslim al-Bahiliy boshchiligidagi harbiy yurishlarni tasvirlaydi. Ayniqsa, Buxoro, Samarqand va Sug'd viloyatlariga qilingan bosqinlar, mahalliy hokimiyatlar bilan tuzilgan kelishuvlar va qarshiliklar jarayoni keng yoritiladi. Donner arab qo'shinlarining soni, ularning harakat taktikalari, diplomatik vositalar va harbiy g'alabalarni aniq tarixiy faktlar bilan asoslaydi.

Muallif Movarounnahr istilosini diniy ekspansiya deb baholamaydi. U quyidagicha xulosa qiladi. Mahalliy aholining musulmonlarga bo'lgan munosabatini, ayrim hollarda hamkorlikni va boshqa hollarda esa qarshiliklarni ham tahlil qiladi. Donnerga ko'ra, arab istilolari tez va kuch bilan amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularning ta'siri uzoq muddatli ijtimoiy, iqtisodiy va diniy o'zgarishlarga sabab bo'lgan. [2; 267–273-b]

Fred M. Donnerning "The Early Islamic Conquests (1981)" nomli fundamental asari musulmonlarning VII–VIII asrlardagi yurishlarini harbiy-siyosiy, diniy va iqtisodiy kontekstda chuqur tahlil qiladi. Muallif arab istilolarini faqat diniy jihad sifatida emas, balki muayyan siyosiy ehtiyojlar va iqtisodiy manfaatlar bilan izohlaydi. Unga ko'ra, xalifalik o'zining moliyaviy va siyosiy barqarorligini saqlab qolish uchun yangi yerlarni, xususan, boy savdo yo'llari va unumdor hududlarga ega bo'lishga intilgan. Movarounnahr istilosi bu ehtiyojlar bilan bog'langan bo'lib, muallif bu yurishlarni tartib bilan yoritadi.

Amerikalik tadqiqotchilardan yana biri Daniyada tug'ilib AQShga ko'chib ketgan Patrisia Kroun hisoblanadi. U zamonaviy g'arb tarixshunosligining yetakchi vakillaridan biri bo'lib, u islomiy siyosiy institutlar va ilk musulmon davlatchiligi tarixini o'rganishda o'ziga xos, tanqidiy metodologiyasi bilan ajralib turadi. U ayniqsa islom sivilizatsiyasining shakllanish bosqichlari, xalifalik boshqaruvi va arablar tomonidan amalga oshirilgan istilolarni siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy kontekstda izohlagan. [3]

Kroun o'zining "Slaves on Horses: The Evolution of the Islamic Polity" (Ot mingan qullar: Islom davlatining evolyutsiyasi) (1980) nomli asarida xalifalik tuzilmalarining shakllanishi, markaziy va mahalliy hokimiyat o'rtasidagi murakkab aloqalar, harbiy elitalarning siyosiy rolini keng tahlil qiladi. U xalifalikdagi viloyatlar boshqaruvi va arab istilolari natijasida yuzaga kelgan yangi siyosiy muvozanatlar haqida fikr yuritadi. Garchi bu sahifalarda Markaziy Osiyo haqida bevosita ko'p misollar keltirilmagan bo'lsa-da, Kroun tomonidan ilgari surilgan nazariy g'oyalar, xususan, markaziy hokimiyatning mahalliy kuchlarga bog'liqligi, harbiy elitalarning davlat boshqaruvidagi ta'siri, viloyat hokimlari va ularning siyosiy avtonomiyasi masalalari Movarounnahr istilosining mohiyatini chuqur tushunishda juda muhimdir.

Kroun asarida Markaziy Osiyo istilosini bevosita ko'p yoritmagan bo'lsa-da, uning yondashuvi — xalifalikni markazlashgan davlat emas, balki murakkab ijtimoiy va siyosiy kuchlar muvozanati sifatida tasvirlash — arablar tomonidan zabt etilgan hududlardagi siyosiy barqarorlik va ularning boshqaruv strategiyasini tahlil qilishda juda foydalidir. Shunday qilib, Kroun'ning nazariy yondashuvi Movarounnahrdagi arab istilosining siyosiy-institutsional asoslarini anglashda muhim manba hisoblanadi.

XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab Amerikalik tadqiqotchilar Arab xalifaligiga oid taqdiqotlarga qiziqish yanada ortdi. Bunga sabab sifatida arab-isroil mojarosi paytida joriy qilingan neft embargosi jahon iqtisodiyoti va AQShni larzaga soldi. AQShda bo'lgan voqealar Arab dunyosi tarixini o'rganishga qiziqishni kuchaytirdi. Masalan, Amerikalik islomshunos va tarixchi Michael G. Morony (1940 y.) Yaqin Sharq va ilk islomiy davr iqtisodiy-siyosiy tarixiga ixtisoslashgan tadqiqotchidir. U Kaliforniya universitetida tahsil olgan va o'zining chuqur tarixiy tahlillari bilan tanilgan. Uning "Iraq After the Muslim Conquest" (Musulmonlar istilosidan keyin Iroq) (1984) nomli fundamental asari Arab xalifaligining Iroqdagi istilosidan keyingi iqtisodiy, ijtimoiy va ma'muriy o'zgarishlarni chuqur tahlil qiladi.

Morony soliqlar tizimi, yer egaligi huquqlari, sug'orish inshootlari va dehqonchilik tizimidagi muhim islohotlarni tasvirlaydi. Unga ko'ra, arablar mavjud sossanid byurokratik tizimni qisman saqlagan holda yangi islomiy boshqaruv elementlarini joriy etganlar. Morony shunday yozadi: "The fiscal system underwent significant changes, but not abrupt ones; the Umayyads largely preserved the administrative framework, while embedding it within Islamic norms" ya'ni Soliq tizimi sezilarli o'zgarishlarga duch keldi, ammo keskin emas, Umaviylar asosan ma'muriy asosni saqlab qolishdi, shu bilan birga uni Islom me'yorlariga kiritdilar.[4]

Asarda arab istilosining nafaqat siyosiy, balki chuqur strukturaviy o'zgarishlarga olib kelgani, xususan, viloyatlarda yangi boshqaruv elitalarining shakllanishi, yerga egalik va ishlov berish tartibining o'zgarishi, qishloq xo'jaligi mahsuldorligining tiklanishi va bu orqali davlat moliyasining mustahkamlanishi keng yoritiladi. Garchi asar geografik jihatdan Iroqqa qaratilgan bo'lsa-da, undagi tahliliy yondashuvlar Markaziy Osiyo istilosi uchun ham dolzarb bo'lib, arablar tomonidan istilo qilingan har bir hududda sodir bo'lgan muhim institutsional o'zgarishlarga doir muhim nazariy asoslarni beradi. Morony bu jarayonni Islom hukmronligi ostida ijtimoiy va iqtisodiy naqshlarni bosqichma-bosqich o'zgartirish deb baholaydi.

Yana bir Amerikalik sharqshunos va tarixchi Elton L. Daniel Eron, Xuroson va ilk islom davri tarixi bo'yicha yetuk mutaxassislardan biri hisoblanadi. U bir necha yillar davomida Texas universiteti va boshqa ilmiy muassasalarda faoliyat yuritgan. Uning "The Political and Social History of Khurasan under Abbasid Rule, 747-820" (Abbosiylar hukmronligi davridagi Xurosonning siyosiy va ijtimoiy tarixi 747-820) (1979) nomli asari Xuroson viloyatining

abbosiylar hukmronligi davridagi siyosiy va ijtimoiy hayotini tahlil qiluvchi fundamental tadqiqotdir.

Mazkur asarda Elton L. Daniel Qutayba ibn Muslim yurishlaridan boshlab, Xurosonda arab hukmronligi qanday qarshiliklarga uchragani, mahalliy hokimlar bilan qanday siyosiy murosalar tuzilganini, va oxir-oqibatda bu hududda arablar tomonidan o'rnatilgan siyosiy va ma'muriy tizim qanday ishlagani haqida chuqur tahlil beradi. Uning xususan, abbosiylar davrida arablar mahalliy zodagonlar, ayniqsa "abna al-dawla" deb atalgan harbiy-aristokratik elita bilan qanday ittifoq tuzganini ko'rsatadi. Danielning fikricha, bu siyosiy strategiya arablar uchun Xurosonda uzoq muddatli nazoratni saqlash imkonini bergan.

Muallif shunday yozadi: "Abbosiylarning Xurosonni birlashtirishi harbiy aralashuvni ham, tartib va daromad oqimini saqlash uchun hamkorlig zarur bo'lgan mahalliy elitalarning kooperatsiyasini ham talab qildi".[5;118-b] U Xurosondagi ijtimoiy qatlamlar, mahalliy dehqonlar va zodagonlarning roli, soliq tizimi va islomlashtirish siyosatini bir butunlikda ko'rib chiqadi. Bu asar orqali Xuroson voqealari orqali Markaziy Osiyoning arablar tomonidan qanday integratsiyalashgani, qaysi bosqichlarda harbiy kuch, qaysi bosqichlarda siyosiy murosalar hal qiluvchi rol o'ynaganini anglash mumkin bo'ladi.

Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar davri tarixini o'rganishda amerikalik tarixchi va sharqshunos olim I.Kristofer Bekvitning asarlari alohida o'rin tutadi. K.Bekvit Markaziy Osiyo va Yevroosiyo tarixi, madaniyati va tillari bo'yicha mutaxassis hisoblanadi. Uning ilmiy ishlari, ayniqsa, ilk o'rta asrlar davridagi Markaziy Osiyo tarixi, ko'chmanchi xalqlar, ipak yo'li madaniyati va ularning Yevroosiyo tarixidagi ahamiyatiga bag'ishlangan. Uning ijodi "The Tibetan Empire in Central Asia", "Medieval Tibeto-Burman Languages", "Koguryo, the Language of Japan's Continental Relatives", "Phoronyms: Classifiers, Class Nouns, and the Pseudopartitive Construction", "Warriors of the Cloisters: The Central Asian Origins of Science in the Medieval World", "Empires of the Silk Road: A History of Central Eurasia from the Bronze Age to the Present", "Greek Buddha: Pyrrho's Encounter with Early Buddhism in Central Asia" asarlaridan iborat. "The Tibetan Empire in Central Asia" (1987) –asarida Bekvit Tibet imperiyasining VII–IX asrlarda Markaziy Osiyodagi hukmronligi va uning Xitoy, Eron va turkiy xoqonliklar bilan munosabatlarini o'rganadi. Ushbu tadqiqot Markaziy Osiyoning siyosiy va madaniy tarixini yangicha talqin qilishga yordam berdi.[6]

"Empires of the Silk Road" ("Ipak yo'li imperiyalari") (2009) – Bekvitning eng mashhur asari bo'lib, u yerda u Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlardagi global ahamiyatini, ipak yo'li savdo-sotiq tarmoqlari va ko'chmanchi imperiyalarning rolini tahlil qiladi. Uning fikricha, Markaziy Osiyo faqat "periferiya" emas, balki qadimgi dunyo tarixining asosiy bo'lgan deb takidlaydi. I.Kristofer Bekvit lingvist bo'lganligi uchun arab-fors, xitoy, yapon va hind tillarini yaxshi o'zlashtirgan. Aynan shu holat uning asarlari ilmiy qiymati yuqorigiligini ta'minlaydi. "The Tibetan empire in Central Asia: a history of the struggle for great power among tibetians, Turks, Arabs and Chinese during tre early middle ages" ba "Empires of the Silk Road (a history of Central Eurasia from the Bronze age to the present)" asarlarini yozishda arab-fors va xitoy tillaridagi manbalardan hamda tibet hujjatlaridan foydalanadi.[7;281-b]

I.Kristofer Bekvit lingvist bo'lganligi uchun arab-fors, xitoy, yapon va hind tillarini yaxshi o'zlashtirgan. Aynan shu holat uning asarlari ilmiy qiymati yuqorigiligini ta'minlaydi. Olim o'z asarlarini yozishda "The Tibetan empire in Central Asia: a history of the struggle for great power among tibetians, Turks, Arabs and Chinese during tre early middle ages" ba "Empires of

the Silk Road (a history of Central Eurasia from the Bronze age to the present)" asarlarini yozishda arab-fors va xitoy tillaridagi manbalardan hamda tibet hujjatlaridan foydalanadi.[8;499-b]

XULOSA

Xulosa sifatida shunday deyish mumkin: ingliz tili tadqiqotlarda Markaziy Osiyoning Arab xalifaligi tomonidan istilo qilinishi voqealari nafaqat mintaqa tarixining muhim burilish nuqtasi, balki global tarixiy jarayonlarning ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. AQShlik tadqiqotchilar (Fred M. Donner, Patrisiya Kroun, Michael G. Morony, Elton L. Daniel, I. Kristofer Bekvit va boshqalar) tomonidan Markaziy Osiyoni arablar bosib olishi (VII–VIII asrlar) asosan madaniy, iqtisodiy va siyosiy oʻzgarishlar jarayoni sifatida oʻrganilgan. Ular bosqinlarni faqat harbiy voqea emas, balki islomlashuv, urbanizatsiya va ilmiy gullashning katalizatori deb baholaydilar.

Umaviylar davri (Qutayba ibn Muslim, 705–715) qonli bosqinlar, mahalliy qarshilik va soliqqa asoslangan nazorat bilan, abbosiylar davri esa integratsiya, sogʻdiy-fors sintezi va "Oltin davr"ning boshlanishi bilan xarakterlanadi. Talas jangi (751) arab kengayishining chegarasi sifatida, Ipak yoʻli savdosi va shahar madaniyati esa bosqinlarning uzoq muddatli ijobiy taʼsiri sifatida taʼkidlanadi.

Umuman, AQSh olimlari bosqinlarni mahalliy madaniyatlarning yoʻqolishi emas, balki yangi tsivilizatsiya sintezining boshlanishi sifatida talqin qiladilar. Bu yondashuv global miqyosda va uzoq muddatli oqibatlarni muhokama qilish uchun muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. O'Connell, Robert L.: "Soul of the Sword.", page 51. The Free Press, New York, 2002
2. F. Donner, The Early Islamic Conquests pp. 267–273
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Кроун,_Патрисия
4. Morony, Iraq After the Muslim Conquest 1984
5. Daniel, E. L. (1979). The Political and Social History of Khurasan under Abbasid Rule 747–820. p. 118
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Christopher_I._Beckwith
7. Christopher I. Beckwith. The Tibetan empire in Central Asia: a history of the struggle for great power among tibetians, Turks, Arabs and Chinese during the early middle ages. – New Jersey: Princeton university press, 1993. – 281 p.
8. Christopher I. Beckwith. Empires of the Silk Road (a history of Central Eurasia from the Bronze age to the present). – New Jersey: Princeton university press, 2009. – 499 p.



SAYT: <https://humansciences.uz>

HUMANSCIENCES.UZ

№ 1 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com